

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



“Tasdiqlayman”
Guliston davlat universiteti
rektori *M.T. Xodjiyev* M.T.Xodjiyev
“ ” 2023 yil

**IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**60211500– Cholg‘u ijrochiligi (Xalq cholg‘ulari)
ta‘lim yo‘nalishi uchun**

Guliston– 2023 yil

Dastur Guliston davlat universiteti o'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2023- yil 27 iyundagi 11 -sonli majlis bayoni.

Tuzuvchi:

**Guldu "Musiqiyta'lim" kafedrası
mudiri, B.Xodjakulov**

Taqrizchi:

**Guldu "Musiqiyta'lim" kafedrası
katta o'qituvchisi, Z.Xomidov**

Kirish

60211500– Cholg‘u ijrochiligi (Xalq cholg‘ulari)ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 1-fan kasbiy (ijodiy) ixtisoslikdan imtihon dasturi, 2-fan Musiqa tarixi va nazariyasi fanidan abituriyentlarning amaliy-nazariy ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Ushbu ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha hujjat topshirgan abituriyentlar musiqiy asarlarni ijro etish borasida ish bajaradilar. Bajariladigan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

1-fan

“XALQ CHOLG‘ULARI IJROCHILIGI”

Fanning maqsadi va vazifalari

60211500– Cholg‘u ijrochiligi (Xalq cholg‘ulari)ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ijrochilik ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Abituriyentlarning umumiy tayyorgarlik darajasi, qobiliyati, iqtidori, bilimi, dunyoqarashi va aql zakovati hisobga olingan tarzda me‘yoriy dasturni o‘zlashtirish ustida ish olib boriladi.

“Xalq cholg‘ularida ijrochilik” fanini o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini o‘zlarining ijro mahoratini namoyish etishlaridan iboratdir. Alohida e‘tibor professional darajali ijroni mukammallashtirishga, uni yuqori badiiy saviyada ko‘rsatib berishga qaratilishi kerak. Ixtisoslik fani yuzasidan abituriyent davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo‘lgan, ya‘ni insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog‘onalari xususan, adabiyot va san‘at sohasida teran fikr yuritish bilan birga, yangi paydo bo‘lgan kompyuterlar tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart.

Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

Yuqorida keltirilgan ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qishga kirayotgan abituriyentlarni saralash maqsadida sinfda kirish talablariga mos dasturlarni ijro etib berishi ko‘zda tutilgan.

O‘qishga kiruvchi 30 daqiqagacha bo‘lgan vaqt mobaynida ijro dasturi (yirik shakl, o‘zbek xalq musiqasidan namuna, mahoratli asar)ni ijro etib berishi, talab etiladi.

Cholg‘uda ijro dasturi

60211500– Cholg‘u ijrochiligi (Xalq cholg‘ulari)ta’lim yo‘nalishiga ariza topshirgan barcha abituriyentlar belgilangan ro‘yxat asosida, yakka tarzda, tayyorlangan dasturni fortepiano jo‘rligida yoddan ijro etishadi.

Abituriyent asarlar nota matnini xatosiz, asarning sur‘atini ko‘rsatilgan tezlikda, ijro shtrixlarini to‘g‘ri qo‘llagan holda, intonatsiya sofligiga amal qilib, barcha artikulyatsiya talablarini bajarib, shuningdek, pozitsiya va applikaturani to‘g‘ri

qo‘llagan holda, asarni badiiy mohiyati va milliy xususiyatlarini to‘liq ochib bergan holatda ijro etib berishi zarur. Asarda musiqiy ifoda vositalarining qo‘llanishi, tovush kuchi va uni boshqarish, hamda uning sifati asosiy ahamiyatga ega.

Ijodiy imtihon abituriyent tomonidan bajariladigan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

1. cholg‘uda ijro dasturi

<u>№</u>	Ijro talablari	To‘liq javob uchun ball
1.	Asar nota matnining to‘g‘riligi	10,0
2.	Tovush sifati va uni boshqarish	10,0
3.	Applikaturaning qo‘llanishi	10,0
4.	Sahna madaniyati	10,0
5.	Artikulyatsiya talablarining bajarilishi	10,0
6.	Musiqiy ifoda vositalarining to‘g‘ri qo‘llanishi	10,0
7.	Shtrix va dinamik belgilarning ishlatilishi	10,0
8.	Intonatsiya sofligi	10,0
9.	Asar xususiyatini ochib berilishi	10,0
10.	Sur‘atning to‘g‘ri tanlanishi	3,0

Ijro dasturi bo‘yicha to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball –**93,0 ball**

2-fan

MUSIQA TARIXI VA NAZARIYASI

“Musiqqa tarixi va nazariyasi” fanidan sinovlar 3 bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqichda abituriyent “Musiqqa adabiyoti” fani boyicha og‘zaki savollarga javob berishi lozim.

2-bosqichda abituriyent “Garmoniya” fani boyicha amaliy topshiriqlarni bajarishi lozim

3-bosqichda abituriyent “Solfedjio” fani boyicha amaliy topshiriqlarni bajarishi lozim

1-bosqich “Musiqqa adabiyoti” fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi - abituriyentlarning “Musiqqa adabiyoti” fanidan nazariy bilim doirasi, amaliy ko‘nikmalarining shakllanganligi qay darajada ekanligini aniqlashdan iborat. Ma‘lumki, musiqiy asarlarni ijro etilishida ularning yaratilish davri, yo‘nalishi, janri va shakli tamoillari yuzasidan bilim ko‘nikmalariga ega bo‘lish talab etiladi. Shunga ko‘ra abituriyentlar oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- musiqiy asarlarni yaratilish davri, yo‘nalishi, janri va shakl tamoillari bilish;

- mumtoz musiqaning yetuk namunalari xususida birlamchi bilimga ega bo‘lish.

Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

Abituriyent “Musiqqa adabiyoti” fanidan o‘quv dasturi doirasida to‘laqonli bilimga ega bo‘lganligini og‘zaki yoki yozma xolda namoish etishi, o‘z javobini musiqiy namunalarni fortepiano sozida chalib ko‘rsatish yoki kuylab berish orqali

tasdiqlashi talab etiladi. Sinov jarayonida abituriyentning-eruditsiya, madaniy xodisalarni anglash, musiqa san'atining tarixiy jarayonlardagi ahamiyatini tushunish kabi xususiyatlari yorqin namoyon bo'lishi kerak.

“Musiqqa adabiyoti” fanidan og‘zaki topshiriqlar:

a) ijro dasturiga oid savollar: (asarning shakl jihatidan tahlili, muallifi, yaratilgan davri va ijro yo‘nalishi, ijroning badiiy xususiyatlari v.h);

b) o‘rta maxsus ta’limning umumiy kursi darajasida musiqa adabiyotidan bilimlarni;

v) janr va shakl nuqtai nazaridan kichik hajmdagi - sonatina, romans, kuy va b. asarlarni tahlil qilish qobiliyati kabilarni o‘z ichiga oladi;

Shuningdek, «Musiqqa adabiyoti»da abituriyentning musiqa san’ati va boshqa san’at turlaridan, o‘zbek va chet el musiqasida ma’lum va mashhur asarlar, zamonaviy an’analar haqidagi bilim darajasi qanday ekanligi bilib olinadi.

1-bosqich bo‘yicha baholash

No	Savollar mazmuni	To‘liq javob uchun ball
1.	Asarga oid savollar	<u>3,0</u>
2.	S’het el musiqa adabiyoti bo‘yicha savollar	<u>6,0</u>
3.	O‘zbek musiqa adabiyoti bo‘yicha savollar	<u>6,0</u>
4.	Asarning janr va shakl nuqtai nazaridan tahlili	<u>6,0</u>

1-bosqich “Musiqqa adabiyoti” bo‘yicha baholash uchun qo‘yiladigan maksimal ball – 21, 0 ball

2-bosqich “Garmoniya” fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi - abituriyentlarning “Garmoniya” fanidan nazariy bilim doirasi, amaliy ko‘nikmalarining shakllanganligi qay darajada ekanligini aniqlashdan iborat.

Abituriyentlar oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- klassik garmoniyaning nazariy qonuniyatlarini bilish;
- nazariy bilimlarni fortepianoda ijro etish orqali namoyon etish;
- garmonik tushunchalarini qo‘llash orqali Davriya shaklida I-darajali turdosh tonallikka modulyatsiyani fortepianoda ijro etish, diatonik yoki xromatik sekvenssiyalarni ijro etish.

Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

Abituriyent “Garmoniya” fanidan o‘quv dasturi doirasida to‘laqonli bilimga ega bo‘lgan holda og‘zaki mashqlarni xatosiz bajarganda, garmonik qonuniyatlarni yechimini fortepianoda erkin namoyon etganda, taxlil jarayonida garmonik nazariy va amaliy ko‘nikmalarini namoyish qilganda, shuningdek, fan bo‘yicha bilimlari yuqori badiiy darajada bo‘lganida qo‘yiladi. Talabning garmonik eshitish qobiliyati, garmonik tuzilmalarni fortepianoda ijro etish mahoragi yorqin namoyon bo‘lishi kerak.

Garmoniya fanidan abituriyent tomonidan bajariladigan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

1. Davriya shaklida I darajali turdosh tonallikka modulyatsiyalarni fortepianoda ijro etish.

2. Diatonik yoki xromatik sekventsiyalarni ijro etish.

2-bosqich bo'yicha baholash

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	Davriya shaklida I darajali turdosh tonallikka modulyatsiyani fortepianoda ijro etish.	15,0
2.	Diatonik yoki xromatik sekventsiyalarni ijro etish.	6,0
Jami		21,0

2-bosqich "Garmoniya" fani uchun qo'yiladigan maksimal ball – **21, 0 ball.**

3-bosqich "Solfedjio" fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi – barcha ixtisosliklar uchun musiqiy eshitishni rivojlantirish va kasbiy tayyorlanishda eng muhim predmetlardan hisoblanadi. Musiqiy eshitish darajasining yuqoriligi, kuylash malakasi va musiqiy xotirani kuchliligi xonanda va dirijyorlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

Fanni o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Solfedjio fani bo'yicha talabalar o'rganilayotgan materialning qaysi millatga taalluqli bo'lishidan qat'iy nazar musiqiy eshitish, xotirani har tomonlama rivojlantirish, kuylash va tinglash jarayonida tovush tozaligini nazorat qilish kabi tasavvur, tushuncha va bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

Abituriyent "Solfedjio" fanidan o'quv dasturi doirasida to'laqonli bilimga ega bo'lgan holda, notaga qarab kuylashni bajarganda, musiqiy-nazariy va amaliy ko'nikmalarini namoyish qilganda, shuningdek, fan bo'yicha bilimlari yuqori darajada bo'lganida qo'yiladi. Talabaning solfedjio fanidan qobiliyatini yorqin namoyon bo'lishi kerak.

Solfedjio fanidan abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

OG'ZAKI:

1. Notanish bir ovozli misollarni dirijyorlik qilib kuylash
2. Intervallar va akkordlarni eshitib aniqlash.

3-bosqich bo'yicha baholash

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	Notanish bir ovozli misollarni dirijyorlik qilib kuylash:	
a)	Tonallikni to'g'ri aniqlash	2 ballgacha;
b)	Sof kuylash	7 ballgacha;
c)	Ritmik ketma-ketlikka aniq rioya qilish	6 ballgacha.
2.	Intervallar va akkordlarni eshitib aniqlash.	6 ballgacha.
Jami		21,0

3-bosqich **“Solfedjio”** fani uchun qo'yiladigan maksimal ball – **21,0 ball**.

“Musiqqa tarixi va nazariyasi” fani uchun qo'yiladigan maksimal ball – **63,0 ball**

Mazkur ta'lim yo'nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga jami qo'yiladigan maksimal ball – 156,0 ball.

Ijodiy imtihonni o'tkazish tartibi

60211500– Cholg'u ijrochiligi (Xalq cholg'ulari)ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida oldindan belgilangan muddatlarda Guliston shahridagi Guliston davlat universiteti binosida ijodiy imtihon topshiradi.

Imtihonlar yakka tartibda Qabul komissiyasi tomonidan belgilangan auditoriyalarda o'tkaziladi.

Ijodiy ishni qabul qiladigan komissiya abituriyentdan ijro dasturi bo'yicha imtihonni qabul qilib oladi.

Appelyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtixon natijalari bo'yicha konservatoriya qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan (vaqtdan) boshlab 24-soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat abituriyent o'zi to'plagan ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.